

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**TYPES OF EXPRESSIONS IN THE WORK “THE TALE OF RABGHUZI”
ACCORDING TO FORM AND MEANING-RELATIONS. PHRASEOLOGICAL
POLYSEMY AND PHRASEOLOGICAL HOMONYMY**

Umida Makhmutaliyevna Farmonova*Lecturer at the Department of Linguistics**FarDU*u1910638@gmail.com*Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseological polysemy, phraseological homonymy, semantic variation, context-dependent meaning, idiomatic structure, lexical vs phraseological meaning, semantic core, idiom homonymy, extended meaning, linguistic semantics.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: This article examines the linguistic phenomena of phraseological polysemy and phraseological homonymy. It compares the degree of polysemy in words and idioms, demonstrating that although idioms generally have fewer meanings quantitatively, their semantic development parallels lexical polysemy qualitatively. The study analyzes idioms such as “baş kötür-”, “yüz ögür-”, and “köñli bar”, illustrating how their meanings vary according to context. Phraseological homonymy is explained through cases where idioms share identical forms but differ in meaning and usage, with examples including “ilki yet-”, “azaqinğa tüş-”, and “yüz evür-”.

**“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANGAN IBORALARNING SHAKL VA
MA‘NO-MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI. FRAZELOGIK POLISEMIYA VA
FRAZELOGIK OMONIMIYA**

Umida Maxsutaliyevna Farmonova*FarDU tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi*u1910638@gmail.com*Farg‘ona, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: frazeologik polisemiya, frazeologik omonimiya, ko‘p ma‘nolilik, shakldosh iboralar, kontekstual semantika, semantik o‘zak, erkin bog‘lanma va frazema, lingvosemantika, ko‘chma ma‘no.

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik polisemiya va frazeologik omonimiya hodisalari lingvistik nuqtayi nazardan yoritiladi. So‘z va iboralarning ko‘p ma‘nolilik darajasi taqqoslanib, frazeologik birliklarda polisemiya miqdoran kam bo‘lsa-

da, sifat jihatidan soʻzlardagi koʻp maʼnolilikka oʻxshashligi isbotlanadi. Shuningdek, “baš kötür-”, “yüz ögür-”, “köñli bar” kabi iboralarining kontekstga koʻra turli semantik qatlamlarda qoʻllanishi misolida frazeologik polisemiya mazmunan tahlil qilinadi. Frazeologik omonimiya esa shakl jihatdan bir xil boʻlgan iboralarining mazmun va qoʻllanishdagi farqlari orqali izohlanib, “ilki yet-”, “azaqīnga tüş-”, “yüz evür-” kabi iboralar asosida tadqiq etiladi.

ТИПЫ ВЫРАЖЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “СКАЗАНИЕ О РАБГУЗИ” ПО ФОРМЕ И СМЫСЛОВЫМ СВЯЗЯМ. ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИСЕМИЯ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ ОМОНИМИЯ

Умида Махсуталиевна Фармонова

Преподаватель кафедры лингвистики, FarDU

u1910638@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая полисемия, фразеологическая омонимия, многозначность, контекстуальная семантика, омонимия фразеологизмов, семантическое развитие, переносное значение, фразеологическая единица, свободное словосочетание и фразема, лингвосемантика.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические явления фразеологической полисемии и фразеологической омонимии. Сопоставляются степени многозначности слов и фразеологических единиц, подчёркивается, что несмотря на количественно меньшую полисемию, фразеологизмы качественно развивают значения аналогично лексической полисемии. На примерах «baš kötür-», «yüz ögür-», «köñli bar» анализируется семантическое варьирование значений в зависимости от контекста. Фразеологическая омонимия демонстрируется через единицы, имеющие одинаковую форму, но различное содержание, такие как «ilki yet-», «azaqīnga tüş-», «yüz evür-».

Kirish. Tilning lugʻaviy boyligini tashkil etuvchi frazeologizmlar mazmunining koʻp qirraliligi ularning semantik tabiatini chuqur oʻrganishni taqozo etadi. Soʻzlardagi koʻp maʼnolilik kabi, iboralarda ham maʼno qatlamlari kontekstga koʻra oʻzgarib boradi. Bu hodisa frazeologik polisemiya sifatida talqin qilinadi va u frazeologizmlarning mazmun jihatdan boy, dinamik tabiati borligini koʻrsatadi. Shuningdek, shaklan bir xil boʻlgan iboralarining turli maʼnolarda qoʻllanishi frazeologik omonimiya hodisasining mavjudligini tasdiqlaydi. “Baš kötür-”, “yüz ögür-”, “köñli

bar”, “ilki yet-”, “azaqninga tush-” kabi misollar iboralarning kontekstga bog‘liq holda turlicha ma’nolar ifodalashini ko‘rsatib, frazeologiyaning murakkab semantik tizimini ochib beradi. Ushbu ishda frazeologik polisemiya va omonimiya hodisalarining mohiyati, ularning differensial belgilarini aniqlash hamda iboralarning semantik imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritish maqsad qilib olinadi.

Frazeologik polisemiya. Polisemiya hodisasi so‘zga ham, iboraga ham xos, lekin bu hodisaning leksikada va frazeologiyada ifodalanish darajasi bir xil emas. Sh.Raxmatullayevning hisob-kitoblariga qarangki, “o‘zbek tilidagi so‘zlarning atigi 20 foizi polisemantik bo‘lsa, “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati”da talqin qilingan 998 iboraning 156 tasi ko‘p ma’noli” xususiyatga ega .

Iboralardagi polisemiya ma’nolarining miqdori jihatidan so‘zdagi polisemiya bilan farq qiladi. Iboraning eng ko‘pi bilan 6-7 ta ma’no anglatishi aniqlangan. So‘zda esa ma’nolar soni 15-20 tagacha bo‘lishi lug‘atlarda qayd etilgan. Bunday miqdoriy farqqa qaramay, sifat jihatidan iboralardagi polisemiya so‘zlardagi polisemiya deyarli o‘xshash. Ma’nolarning rivojlanish yo‘llari, ma’nolarning o‘zaro bog‘liqligi jihatidan, ma’nolarning grammatik tabiati nuqtayi nazaridan ular juda o‘xshash. Ko‘rinadiki, polisemiya iboraning so‘z darajasidagi semantik hodisa ekanligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi. Alohida ta’kidlash lozim bo‘lgan farq shundaki, so‘zda to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolar mavjud, iboradan esa har doim ko‘chma ma’no anglashiladi .

Frazeologik polisemiya – bir frazeologik birlikning (iboraning) kontekstga ko‘ra bir nechta ma’no qatlamida qo‘llanilishidir. Bunday holatda frazeologizm ma’lum semantik o‘zak asosida turli ma’nolarga ega bo‘ladi, biroq ularni umumlashtiruvchi shakl va tuzilma saqlanib qoladi. Baš kötür- iborasi frazeologik polisemiya (ya’ni ko‘p ma’nolilik) hodisasining aniq va boy ifodasidir. Ushbu ibora asarda turli kontekstlarda to‘rt xil asosiy ma’noda ishlatilgan va bu bir iboraning turli ma’nolarda qo‘llanilishi orqali frazeologik polisemiya holatini yuzaga keltirgan. “Qo‘zg‘almoq, harakatga kelmoq” – “Ey Musā, bašın kötürgil (127v225);

“Ko‘rindi, paydo bo‘ldi” – Tenjizdin bir balıq baš kötardı (138v246);

“Kurashga chog‘lanmoq, qarshilik ko‘rsatmoq” – ... barča nārsālār baš kötürüp Ādamnı bizdin yaratğıl tep tama’ qıldılar (6v15);

“ Qad rostlamoq” – Qamuğ toğlar baš kötārdılar, kemi bizğā tolanğay, tep. (27r49). Bu kontekstda qo‘llangan iboradan anglashilgan ma’no esa tog‘larning baland ko‘rinishi yoki ulug‘vorligini ifodalaydi.

B.Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, “PFlar (polisemik frazemalar) tarkibidagi ma’nolar ham xuddi leksik ma’nolarda bo‘lgani singari o‘ziga xos kontekstda, sintaktik qurshovda namoyon

bo'ladi. Ayrim PFlarning ma'nolari (semalari) o'zaro lug'aviy ma'nosidan tashqari, leksik kontekstida, grammatik tabiati yoki sintaktik qurshovida farqlanishi mumkin".

Yüz ögür- iborasi ham frazeologik polisemiya hodisasining yorqin namunasidir: jismoniy harakat sifatida – “qaramaslik uchun boshni burmoq”: Kuna Sulaymāndīn yüz ögürdi, yēglādī (143r254);

“Munosabatni uzish, muomalani to'xtatish” – Aymīšlar, Ya'qub yalawač Yusuf üçün anča yēglādīkūm iki közi aqardī, körmās boldī. Oğlanlarīndīn yüz ögürdi (100v175);

“Nasihat ma'nosida esa biror ishga qiziqmaslik” – Ey Yusuf, bu işdīn yüz ögür ... (85r148).

Tilning ifoda vositalaridan biri hisoblangan frazeologizmlar, ko'pincha, o'zida ko'p qirralilik, ya'ni polisemiyanı mujassam etadi. Leksik birliklardagi ko'p ma'nolilik kabi, frazeologik birliklarda ham kontekstga qarab ma'no qatlamlarining o'zgarishi kuzatiladi. Bu hodisa frazeologik polisemiya deb ataladi. Shunday frazeologizmlardan biri köñli bar iborasidir. “Biror ishni qilishga moyillik, xayrixohlik” – ... musulman bolurğa köñli bar erdī (148v264). Ibora ifodalagan kontekstdagi ma'nosi “biror narsaga tayyor turish, ijobiy munosabat bildirish” hisoblanadi; “Sevishga moyil bo'lmoq” – Aydt: “Ey Zaum, Kosurni körgü köñlün bar ersa, mani izarğil” (33r59). Ushbu gapda esa “kimnidir sevishga moyil bo'lish” ma'nosi anglashilgan.

Frazeologik omonimiya. Frazeologik polisememiya deganda frazemaning o'zi ikki va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi. O'zaro shaklan o'xshash erkin bog'lanmadan va frazmadan anglashiladigan ma'nolar bir nuqtaga birlashtirilib, polisememiya deb qaralmaydi, chunki bular har xil hodisalar: erkin bog'lanma – nutqiy birlik, frazema – lisoniy birlik. Erkin bog'lanma bilan frazemaning shaklan teng kelish hodisasi omonimiklik deyiladi.

Shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya – iboralarda ham mavjud. Lug'aviy omonimiyaning umumiy miqdori hali hisob-kitob qilinmagan. Leksik omonim so'zlar 5 foizda uchraydi deb belgilasak, frazeologik omonimiya taxminan 3 foizda uchrashini ko'ramiz. Masalan, dam bermoq I va dam bermoq II. Bu iboralar aynan bir xil so'zlardan tashkil topgan. Omonimiyaning paydo bo'lishiga birinchi komponentlar sabab bo'ladi: birinchi iborada “havo” ma'nosida, ikkinchi iborada esa “charchoqni yo'qotish uchun faoliyatni to'xtatish” yoki “dam olish” ma'nosida ishlatilgan. Bu iboralardan o'zaro bog'liq bo'lmagan turli ma'nolar anglashiladi: “havoni kuch bilan haydab kiritmoq” va “hordiq chiqarishga imkoniyat yaratmoq”.

Frazeologik omonimiya – bu bir xil yoki o'xshash shakldagi frazeologik birliklarning turli ma'nolarda qo'llanilishi holatidir. Tashqi ko'rinishi bir xil bo'lsa-da, ma'no va ishlatilish konteksti jihatidan ular turli frazeologizmlar sifatida namoyon bo'ladi. O'rganilayotgan yodnoma matnidan olingan ilki yet- iborasi frazeologik omonimiyaning yaqqol misolidir: Yazid ānt ičti, ilkim yetsā Husāynni öltürgäymen tep (244v447); Ali Rasulnūj eginlāriğa azaq qöyüb butni olurda Rasul aydt:

Yä Ali, ilkin yetdimu? (198r355). Birinchi gapda qo‘llangan iboradan “qudrati yetmoq” yoki “imkoniyati bo‘lmoq” ma’nosi anglashilsa, ikkinchi gapdan esa “jismoniy holat, qo‘l bilan tegish” ma’nosi ifodalanadi.

Asarda qo‘llanilgan azaq‘nğa tüş- iborasi frazeologik omonimiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu ibora shaklan bir xil bo‘lsa-da, kontekstga qarab turli ma’nolarni ifodalaydi: Göra bolmadılar, kelib Sa’dniñ azaq‘nğa tüştilär (230r419). Bu o‘rinda ibora ko‘chma ma’noda, ya’ni “yolvorib yordam so‘ramoq”, “iltijo qilmoq”; Aydlär: Ey yigit, sen kimsen? Aydi: Men Yunus yalavačman. Kemi xalqı qamuğı Yunus azaq‘ğa tüştilär (156r279). Ushbu gapda esa ibora asl (to‘g‘ri) ma’nosida, ya’ni “yoniga bormoq”, “oldiga yetib kelmoq”, “jismoniy yaqinlashmoq” ma’nolarida qo‘llanilgan. Har ikki holatda ham iboraning shakli bir xil, ammo semantik mazmuni butunlay farq qiladi.

Leksik omonimiya va leksik polisemiya o‘rtasidagi differensial belgi motivlovchi semaning mavjud yoki mavjud emasligi bilan izohlanadi. Polisemiya bu belgiga ko‘ra oppozitsiyaning kuchli, omonimiya esa kuchsiz a’zosi sanaladi. Xuddi mana shu belgi tilning boshqa sathlariga xos bo‘lgan omonimiya va polisemiya hodisalarini ham farqlash uchun xizmat qiladi.

Yüz evür- iborasi frazeologik omonimiya hodisasini namoyon qiladi, ya’ni bir xil shaklga ega bo‘lib, turli kontekstlarda turlicha ma’no kasb etadi: Kim bizdin yüz evürüb ketti ersä ul bizgä kelmäsä yaxşıraq (226v411). Ushbu kontekstda qo‘llangan ibora ko‘chma ma’noda, ya’ni “aloqani uzish”, “muomala qilmaslik”, “e’tibor bermaslik” ma’nolarida qo‘llanilgan. Bu frazeologik ma’no bo‘lib, ruhiy va ijtimoiy munosabatning uzilishini anglatadi;

Umar raziyallohu anhu qöldošlaringä yüz evürdi, aydi: (18v36). Bu holatda yuz o‘girmoq jismoniy harakat ma’nosida qo‘llanib, yuzni boshqa tomonga qaratish, suhbatga yo‘nalish ma’nosida ishlatiladi. Bu asosiy (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) ma’no bo‘lib, harakatni ifodalaydi.

Xulosa. Frazeologik polisemiya va frazeologik omonimiya tilning semantik tizimida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iboralarda ko‘p ma’nolilik miqdoran so‘znikidan kam bo‘lsa-da, sifat jihatidan ular bir-biriga yaqin va o‘xshash rivojlanish yo‘liga ega. Frazeologizmlarning ma’nosi asosan kontekst orqali belgilanishi, ularning semantik o‘zagini saqlagan holda turlicha ma’no kasb etishiga imkon yaratadi. Omonimiya esa shaklan bir xil bo‘lgan, ammo mazmunan farq qiluvchi iboralarda namoyon bo‘lib, ularda to‘g‘ri va ko‘chma ma’no o‘rtasidagi keskin farqlar kuzatiladi. Umuman olganda, bu hodisalar tilning boyligi, ma’no qatlamlarining murakkabligi va frazeologizmlarning semantik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – 191 b.

2. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣй” лексикаси: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 90 б.
3. Ganiyeva Sh. Frazеologik birliklarning sintagmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ...diss. avtoref. – Qo‘qon, 2023. – 236 b.
4. Turkiy adabiyot durdonalari. 100 jildli. 5-jild. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi H.Dadaboyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 502 b.
5. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / – Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 635 b.